



“COMPUTER SCIENCE AND ENGINEERING TECHNOLOGIES”

International scientific and technical conference on October 14-15, 2022.

Web: <http://journal.jbnuu.uz/>

2-SHO‘BA

RAQAMLI IQTISODIYOT UCHUN INFRATUZILMALAR

SHAXSNING IQTISODIY XAVFSIZLIGIGA TAXDIDLARNING OLDINI OLISHNING AYRIM JIHATLARI

s.f.n., dots. Hakimov Orziqul

O‘zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali

hakimovorziqul333@gmail.com

Annotatsiya. Shaxsning iqtisodiy xavfsizligi mamlakatda mustahkam iqtisodiy xavfsizlik tizimi mavjud bo‘lgandagina ta’minlanadi. Mustahkam iqtisodiy xavfsizlik tizimi, ichki va tashqi tahdidlarning oldini olish, ularning ta’sirini kamaytirish esa davlatning samarali ijtimoiy iqtisodiy siyosatining shakllanishini taqozo etadi.

Kalit so‘zlar: Iqtisod, globallashuv, xavfsizlik, tahdidlar, siyosiy, ijtimoiy, xavfsizlikni ta’minlash, xavf-xatar, iqtisodiy munosabatlar, infilatsiya, kriminallashuv, qashshoqlik, bandlik.

Hozirgi vaqtida globallashuv jarayonlarining rivojlanib borishi Markaziy Osiyo mintaqasida xavfsizlikni ta’minlash muammolarini yanada murakkablashtirmoqda. Buning asosiy sababi, mintaqada yangi ko‘rinishdagi xavf va tahdidlar yuzaga kelmoqda va ular o‘zining ko‘lami jihatidan transchegaraviy ahamiyat kasb etmoqda. Bir so‘z bilan aytganda, Markaziy Osiyo mintaqasi xavfsizligiga nisbatan boshqa davlatlar tomonidan bo‘ladigan an’anaviy harbiy tahdidlar o‘z ahamiyatini yo‘qotib bormoqda va uning o‘rniga transchegaraviy tahdidlar yuzaga kelmoqda[1].

Shaxsning iqtisodiy xavfsizligi shaxsning ijtimoiy jihatidan rivojlanishi, kamol topishi va hayotiy manfatlarining kafolatli himoyalanishini ta’minlaydigan holatidir. Shu boisdan shaxsning iqtisodiy xavfsizligi har bir inson uchun hayotda muvaffaqiyatga, farovonlikka erishganligining hamda jamiyatda barqaror mavqega ega bo‘lganligining muhim ko‘rsatgichi bo‘lib xizmat qiladi[2].

Shaxs iqtisodiy xavfsizligining sub’ektlari quyidagilar hisoblanadi:

- shaxs ya’ni har bir insonning o‘zi. Bunga sabab inson hayoti faoliyatiga rahna, xaf soluvchi tahdidlarning asosiy qismi sub’eltni tavsifga ega bo‘lib, ularni shaxsning o‘zi bartaraf etishi mumkin;

- jamiyat. Jamiatning ijtimoiy institutlari shaxsning ba’zi xuquqlarining davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining aralashuvlisiz ham kafolatli amalga oshirilishini ta’minlash imkoniyatiga ega bo‘ladi;

- davlat. Davlat o‘zining har bir fuqarosini mamlakat xududida va undan tashqarida ham himoya qilishni kafolatlaydi[3].

Shaxs iqtisodiy xavfsizligiga tahdidlar bo‘yicha iqtisodiy adabiyotlarda turli qarashlar va tavsiflar mavjud. A. P. Gaydarning fikricha shaxsga nisbatan xavf – xatar



"COMPUTER SCIENCE AND ENGINEERING TECHNOLOGIES"

International scientific and technical conference on October 14-15, 2022.

Web: <http://journal.jbnuu.uz/>

va tahdidlar quyidagilardan iborat:

- aholining ish bilan past darajadagi bandligi va ishsizlik;
- inflyatsiya;
- kambag'allik va qashshoqlik;
- shaxs va oilaning degralatsiyaga uchrashi;
- iqtisodiyotning kriminallashuvi;
- ta'lim, sog'liqni saqlash va fanning huquqiy normalar bilan tartibga solinmagan holda tijoratlashuvi;
- ta'lim, aholining bilim darajasining pasayishi;
- bepul tibbiy xizmat sifatining pasayishi;
- aholi tur mush darajasining pasayishi va umr uzoqligining qisqarishi [4]

Yuqoridagi holatlar haqiqatda inson xafvsizligiga tahdidlar hisoblanadi. Ammo bu tahdidlar insonning o'ziga bog'liq bo'lган yoki ijtimoiy iqtisodiy tizimda vujudga keladigan tahdidlar bo'yicha turlarga ajratilmagan.

Bizning fikrimizga ko'ra shaxs iqtisodiy xafvsizligiga tashqi tahdidlar mamlakat ijtimoiy iqtisodiy rivojlanish sur'atlarining jamiyat ehtiyojlari o'sishiga nisbatan orqada qolishi, siklik o'zgarishlar, bozor kon'yunkturasidagi tebranishlar, iqtisodiy inqirozlar, ishsizlik va inflyatsiya darajasining boshqarib bo'lmaydigan darajalarda o'sishi, xududlar rivojlanishidagi nomutanosiblikning kuchayishi, tabiiy yoki inson kapital resurslarining yetarli emasligi, ijtimoiy sohalar shu jumladan, ta'lim va sog'liqni saqlash sohalar rivojlanishining past darajadaligi, mamlakatda ijtimoiy ciyosiy vaziyatning yomonlashuvi, tabiiy muhitning yomonlashuvi tabiiy ofatlar, favqulodda vaziyatlar tufayli vujudga keladi. Shuningdek tashqi tahdidlar turli davlatlar hamda ular bilan hamkorlik qiluvchi siyosiy va ijtimoiy hamkorlik kuchlari o'rtasidagi nizo, ziddiyat, qarama qarshiliklarning kuchayishi, jahon iqtisodiyotidagi inqirozli vaziyatlar mamlakat tashqi qarzining xaldan tashqari o'sib ketishi sababli ham vujudga kelishi mumkin.

Shaxs xafvsizligiga tahidlarning oldini olish uchun quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- iqtisodiyotni rivojlantirish va erkinlashtirish borasida amalga oshirilayotgan ishlarni izchillik bilan davom ettirish, kishilarning tadbirkorlik faoliyatini hamda iste'molchilar manfaatlari va xuquqlarini himoya qilishni yanada kuchaytirish;
- ijtimoiy nizolarni keltirib chiqarishi mumkin bo'lган darajada ishsizlikning o'shining oldini olish, yangi ish o'rinalarini yaratish, mehnatga layoqatli aholining ish bilan bandligini o'stirish chora tadbirlarini amalga oshirish;
- kambag'allik va qashshoqlik muammosini keltirib chiqarish mumkin bo'lган tahidlarni baholash va ularning oldini olish, kam ta'minlangan aholini kuchli ijtimoiy himoya qilish mexanizmini takomillashtirish.

Shaxsning iqtisodiy xafvsizligiga taxidlarning oldini olishning ichki va tashqi tahdidlar quydagicha:

No	Ichki tahdidlar	Tashqi tahdidlar
----	-----------------	------------------



“COMPUTER SCIENCE AND ENGINEERING TECHNOLOGIES”

International scientific and technical conference on October 14-15, 2022.

Web: <http://journal.jbnuu.uz/>

1	Omadsizlik	Turli davlatlar o’rtasida nizo, ziddiyt, qarama-qarshiliklarning kuchayishi
2	Insonning yomon xulq va odatlari (axloqsizlik,ichkilikbozlik,qimorbozlik va nosog'lom xayt tarsi)ga moyilligi	Jahon iqtisodiyitidagi inqirozli vaziytlar
3	Insonning qat'iysizlik, sabrsizlik, chidamsizlik,dangasalik,passivlik kabi salbiy shaxsiy xususiytlari	Mamlakat tashqi qarzlarining haddan tashqari ortib ketishi
4	Qariganligi va kasallikkari hamda travmalar sababli mehnat qobiliytini vaqtinchalik va butunlay yo'qotganligi	Mamlakatda kriminallashuv, uyushgan jinoyatchilik va korrupsiyaning kuchayishi
5	Boquvchisidan ayrilib qolishi	Tabiiy yoki inson, capital resurslarining yetarli emasligi
6	Tug'ma nogironlik, insonning jismoniy va aqliy imkoniyatlarining chegaralanganligi	Tabiiy muhitning yomonlashuvi, tabiiy ofatlar, favqulodda vaziyatlar
7	Daromati kam bo'la turib bolalari va boqimandalarning ko'p bo'lishi	Mamlakatda ijtimoiy-siyosiy vaziyatning yomonlashuvi
8	Raqobat kurashida sinishi, bozori kasod bo'lishi	Ijtimoiy sohalar, shu jumladan, ta'lim va sog'liqni saqlash sohalari rivojlanishining past darajadaligi
9	Kam haq to'lanadigan ishlarda ishlashi	Ihsizlik va infiltratsiyaning boshqarib bo'lmaydigan darajalarda o'sishi
10	Bilim va kasb malaka darajasining pastligi yoki yo'qligi	Bozor konyunkturasudagi tebranishlar sikllik o'shgarishlar, iqtisodiy inqirozlar
11	Shaxsning o'z oldiga noto'g'ri maqsadlarni qo'yishi	Mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi suratlarining jamiyat ehtiyojlari o'sishiga nisbatan orqada qolishi

Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirzizoyevning BIRLASHGAN MILLATLAR TASHKILOTI BOSH ASSAMBLELYASI 75-SESSIYASIDA SO'ZLAGAN NUTQINI O'RGANISH VA KENG JAMOATCHILIK O'RTASIDA TARG'IB QILISH BO'YICHA O'QUV QULLANMA TOSHKENT "MA'NAVIYT" 2021. 108-109 betlar

2. Экономическая безопасности личности <http://newinspire.ru/1/2/25/1071-ekonomicheskaya-bezopasnost-lichnosti.html>

3. Экономическая безопасности личности <http://newinspire.ru/1/2/25/1071-ekonomicheskaya-bezopasnost-lichnosti.html>



“COMPUTER SCIENCE AND ENGINEERING TECHNOLOGIES”

International scientific and technical conference on October 14-15, 2022.

Web: <http://journal.jbnuu.uz/>

4. Гайдар А.П Безопасность жизнедеятельности. Учебное пособие // Источник: <http://www.newsocio.ru/napgs> 333-1 html.
5. Rashidov A. IQTISODIYOTNI TARTIBGA SOLISHDA NOTARIF USULLARINING ORNI VA AHAMIYATI //Архив научных исследований. – 2022. – Т. 2. – №. 1.
6. Abror Ro'zimurod o'g R. et al. JIZZAX VILOYATI IQTISODIY O'SISH KO'RSATKICHLARI YOKI JARAYONLARI //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – Т. – №. 1. – С. 20-22.
7. Nilufar Sabitjanovna Ismailova, Uchqun Ro'Zimurod O'G'Li Rashidov, Abror Ro'Zimurod O'G'Li Rashidov JAHON SAVDO TASHKILOTIGA QO'SHILISH: QO'SHILISH JARAYONI HAMDA UNING QONUNIY ASOSLARI // Scientific progress. 2021. №2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/jahon-savdotashkilotiga-qoshilish-qoshilish-jarayoni-hamda-uning-qonuniy-asoslari> (дата обращения: 14.09.2022).
8. Бахром Х. Х. БИЗНЕСНИ РЕЖАЛАШТИРИШ ТАРТИБЛАРИ //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – Т. 12. – №. 2. – С. 139-142.
9. Nizametdinov A., Ahmedova N. Elektron ta 'lim metodologiyasi rivojlantirishning usullari //Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzARB muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 29-31.
10. Khakimov O. M. Issiq-quruq iqlim sharoiti uchun asfaltbeton tarkibini tanlash //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 2. – С. 241-247.
11. Хакимов О. М., Курбанов З. Х., Мухаммедов Ф. Реализация возможностей получения легких наполнителей на основе меньше пластиковых почв в нашей республике //Science and Education. – 2021. – Т. 2. – №. 5. – С. 176-181.
12. To'ychiyeva N. Elektron Ta 'lim Tizimining Afzalliklari Va Kamchiliklari //Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzARB muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 40-41
13. Boltaeva M. J., Kh O. Ortikov. Features of the scientific heritage of eastern thinkers about the attitude of parents to the child //Society and innovations. Special. – 2021. – №. 2. – С. 469-474.